
Jonkeldida yangi arxeologik yodgorliklar topildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi va “Aswa Power Dzhangeldy Wind” MChJ o’rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq O’zR FA Milliy arxeologiya markazi Samarqand arxeologiya instituti va Samarqand Davlat universiteti mutaxassislaridan iborat ekspeditsiya joriy yilning 25-iyun – 25-iyul kunlarida Buxoro viloyati Peshku tumaniga qarashli Jonkeldi qishlog’i atrofi hududlarida (2 ta hudud: 23500 ga va 6700 ga maydonda) arxeologik yodgorliklarni aniqlash va xaritalashtirish maqsadida dastlabki dala-qidiruv ishlarini olib bordilar.






Jonkeldi qishloq markazidan 10 km shimoliy-sharqda joylashgan nomsiz botiqning (hajmi: 10x3 km) shimoliy bortidan neolit davriga oid tom ma’nodagi toshga ishlov berish ustaxonasi topildi.

Ustaxona dengiz satxidan 383 m balandlikda, hozirda yemirilib ketgan kremniy konlari ustida joylashgan. Maydoni 70x30 m va ikki tomondan jarliklar bilan kesilgan. Bu yerda kremniyning oq, jigarrang va kulrang tusdagilari uchraydi. Biroq ular orasida oq kremniy ko’pchilikni tashkil qiladi. Yodgorlikda o’tkazilgan qazish ishlari bu yerda madaniy qatlamning yagonaligini va qalinligi 40 sm gacha yetishini ko’rsatdi. Ushbu chuqurlikdan keyin topilmalar tugaydi va oxaktoshli qoyalar boshlanadi.

Ustaxonadan 400 dan ziyod ishlov berilgan tosh buyumlar yig’ib olindi. Topilmalar orasida bir qator xom-ashyo deffekti tufayli yoki boshlang’ich bosqichlarda tashlab yuborilgan nukleuslar, uchirindi va plastinalar mavjud. Shuningdek, to’plamda toshlarni chaqmoqlash bilan bog’liq texnik yo’nilg’ilar katta qismni tashkil qiladikim, bu toshlarga birlamchi ishlov berish ishlari shu joyning o’zida amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Aftidan, neolit davri aholisi (mil avv. VII-V ming yilliklar) bu yerga sifatli xom-ashyoni qo’lga kiritish uchun tashrif buyurishgan. Materiallarning guvohlik berishicha, bu yerda mavjud bo’lgan kremniy qalin oxaktosh qobiqqa va ichki deffektlarga ega. Shuning uchun ham ibtidoiy ustalar kremniyni shu joyning o’zida keraksiz qobiqlardan va ichki deffektlardan tozalab, yo’nilg’ilar yoki tayyor (deffektlardan holi) nukleuslar shaklida makonlarga olib ketganlar. Buning uchun shu joyning o’zida toshlarga birlamchi ishlov berish ishlarini amalga oshirishga to’g’ri kelgan. Tipologik jihatdan bu “tom ma’nodagi” ustaxona, ya’ni, kremniy konlari yaqinida joylashgan bu joyga neolit davri odamlari xom-ashyo olib ketish uchun tashrif buyurganlar va toshlarga birlamchi ishlov berish faoliyatini amalga oshirganlar. Yodgorlikka Jonkeldi neolit davri ustaxonasi nomi berildi. Bu yerdan yig’ib olingan arxeologik materiallarning texnik-tipologik va keng qiyosiy tahlillari ustaxonaning mohiyatini kengroq ochib berish imkonini beradi.







Biroq hozirdanoq aytish mumkinki, Jonkeldi hududidan yangi tosh davriga oid yangi yodgorlik – toshga ishlov berish ustaxonasi topildi va O’zbekiston tarixi neolit davriga oid yangi bir yodgorlik bilan boyitildi. Jonkeldi hududi ibtidoiy odamlar yashashi uchun qulay paleoekologik sharoitlarga ega bo’lgan. Bu yerda mavjud bo’lgan sifatli kremniy konlariga ehtimol, yaqin atrof yoki qo’shni hududlardan ibtidoiy ajdodlarimiz tashrif buyurishib, xom-ashyo olib ketganlar.

Ustaxona topilgan nomsiz botiqni tadqiq qilish jarayonida, uning janubiy-g’arbiy bortidan o’rta asrlarga (V-X asrlar) oid tizimli tarzda shimoliy-g’arb - shimoliy-sharq yo’nalishidagi bir chiziq bo’lib cho’zilgan 8 ta doira shaklidagi mozorqo’rg’onlar guruhi topildi. Qo’rg’onlarning ustki qismi turli o’lchamlardagi (20-50 sm) oxaktoshlar bilan doira shaklida qalangan tosh to’plamlari kuzatildi. Tosh qalamalarning diametri 5 ta holatda 2 metr radiusni, qolgan 3 tasida yanada kichikroq diametrga ega. Qo’rg’onlar orasidagi masofa 3 m ni tashkil qiladi. Qabrlar deb taxmin qilinayotgan bu qurilmalarning 4-sidan ko’plab sopol parchalari yig’ib olindi. Sopollar ilk o’rta asrlar sopollari deb taxmin qilinmoqda.

Shunday qilib, Buxoro viloyati Peshku tumani, Jonkeldi qishlog’i atrofidagi loyiha bo’yicha belgilab berilgan 30 mingga dan ortiq hududlarning arxeologik xaritasidan “oq dog’”lar olib tashlandi. Bu hudud neolit va o’rta asrlar davrlari davomida ajdodlarimiz tomonidan istiqomat qilinganligi aniqlandi.